
Xalq qabulxonasi va «Xalqparvar» komissiyasi hamkorlikda murojaat joyida o'rganildi

Farg'ona viloyati Rishton tuman Yuqori Beshkapa MFY Saxovat ko'chasi 27-uyda yashovchi fuqaro Maxamadjon Madaminov tuman Xalq qabulxonasiga murojaat qilib, o'z murojaatida Yuqori Beshkapa MFY Saxovat ko'chasidagi ichki yo'llarni ta'mirlashga yordam so'ragan.

Ushbu murojaat yuzasidan tuman Xalq qabulxonasi mudiri S. Dodoboev, Xalq deputatlari Rishton tuman kengashi deputati, «Xalqparvar» komissiyasi raisi B. Ermatov hamda mutasaddi tashkilot rahbarlari tomonidan joyiga borib murojaat o'rganildi.

Ushbu murojaat asosli deb topilib, mutasaddi tashkilotlarga ijobiy hal qilish yuzasidan topshiriqlar hamda MFY raisiga dolzarb muammolar qatoriga qo'shish taklifi berildi. Shuningdek, ijtimoiy soha ob'ektlaridagi muammolar hamda tumanning boshqa MFY larda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishib, mutasaddilarga tegishli ko'rsatma va topshiriqlar berilishi ta'minlandi.

2022-09-10 06:13:32